

Nuhdan so'ng



15:00 / 05.12.2020 4514

Alloh Nuhning zurriyotlariga baraka berdi, ular yer yuziga tarqaldi. Ulardan bir xalq bo'lib, «Od» qavmi, deb atalar edi. Ular kuchli kishilar edi, ularning jismlari go'yoki temirdek bo'lib, barchani yengardilar. Ularni hech kim yenga olmas, hech kimdan qo'rqmasdilar. Ulardan hamma qo'rqar edi. Alloh «Od» qavmiga barcha narsada baraka berdi. Od qavmining tuyalari va qo'ylari bo'lib, ular vodiyni to'ldirib turar edi. Od qavmining otlari bo'lib, ular maydonni to'ldirib turar edi. Od qavmining bolalari bo'lib, ular uylarni to'ldirib turar edi. Od qavmining tuyalari va qo'ylari yaylovga chiqsa, ularda juda chiroyli bir manzara bo'lar edi. Agar yosh bolalar tongda chiqib o'ynasalar, ularda ham juda chiroyli manzara bo'lar edi. Shuningdek, od qavmining yerlari chiroyli, yam-yashil yerlar bo'lib, ularda ko'plab bog'-rog'lar va buloqlar bor edi.